

NUTQ VA NOTIQLIK SAN'ATINING SHAKLLANISH TARIXI

Fatxullayev Nuriddin Faxriddin o'g'li

Toshkent Amaliy fanlar universiteti,

Tarix va Filologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:Biz ushbu maqolamizda Nutq va notiqlik san'atining qadimgi tarixi, xossatan Qadimgi Rim, Yunoniston. O'rta Osiyo va qisman muqaddas kitoblar bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish jarayoni bilan tanishib chiqamiz.

KALIT SO'ZLAR:Qur'oni Karim, Hadisi-sharif, Avesto, Shiroq, DoroI, Qadimgi Yunoniston, Demosfen, Logograflar, Xamurappi, epidktikt, Sofist Grigoriy, Qadimgi Rim, Lisiy, Adronik.

Insonlar hayotlari davomida turli-tuman ishlarni amalga oshiradilar va bu amallari insonlarni xattoki tarixga muhrlanishlariga ham sabab bo'ladi. Misol uchun quruvchi o'zi bunyod etgan inshoot tufayli keyingi avlodlar xotirasida abadiy qoladi. Bu holatni biz mashxur quruvchi Fidiy bilan izohlashimiz mumkin. Aynan u Dunyoning yetti mo'jzasidan biri bo'lgan Zevs haykalini bunyod etdi. Yoki Buyuk Aleksandrni oladigan bo'lsak, u davlat sarhadlarini kengaytirish bilan o'z nomini abadiylikka muhrladi. Shunday shaxslar ham borki ular na davlat qurdilar va na o'zlarini eslatadigan bironta inshoot qoldirdilar! Lekin shunga qaramay ularning nomi hali hanuz insonlar yodida. Masalan Demosfenni oladigan bo'lsak uni insonlar xotirasida qolishiga sabab bo'lgan, eng katta sabab shubhasiz uning notiqligi desak mubolaga' qilmagan bo'lamiz. Ushbu maqolamizda biz sizlar bilan Notiqlik, uning turlari va tarixi, shakllanish jarayoni haqida to'xtalib o'tamiz.

Notiqlik- bironi ishontirish maqsadida qo'llanadigan san'at hisoblanadi. Yani inson qarshisida turgan boshqa bir shaxsni o'ziga qarata olishi va shu bilan birgalikda u qabul qila oladigan darajada bo'layotgan jarayonni tushuntira olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Notiqlik bu so'z san'ati, so'z san'ati bo'lganda ham ohangda libos kiyib talaffuz bilan jilolangan so'z san'atidir. Madomiki so'z qudratini chuqur anglagan. So'z ne'matining Alloh tomionidan faqatgina insonga in'om etilganligini his etgan buyuk allomalargina uni qadrlaganlar va ezozlashga uringanlar. Shu manoda Notiqlik san'ati boshqa san'at turlari orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingan haqiqatdir. Qadimda mohir notiqlarning lashkarboshilik va davlat arboblari lavozimlariga saylab tayionlanganliklari ham bu haqiqatga aniqlik kiritadi. Bugungi kunda ko'pgina idora rahbarlari nutqidagi kamchiliklar, muallimlar nutqidagi chaynalishlar, teleko'rsatuvlardagi hatto jurnalistlar nutqidagi g'alizliklar bizning manaviyatimizga yarashmaydi. Chunki biz mustaqillikning barcha chashmalaridan bahramand bo'lib turgan ekanmiz, notiqlik san'ati chashmasidan ham bebahro bo'lmasligimiz kerak [1,.7-bet]

Qadim zamonlardan beri jamoat oldida so'zga chiqib, odamlarga o'z fikrini tushuntirish, ular ongiga tasir etib, o'z ortidan ergashtirish, biror narsa, voqea, hodisa haqida gapirganda ishontirish va isbotlab berishga intilish, insonlar orasidan so'zamol notiqlarning chiqishiga zarurat tug'dirgan hamda notiqlik san'atining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Albatta bunday holatning vujudga kelishiga malum bir muhit yoki sabbalar ham bo'lishi lozim. Chunki inson qanchalar iqtidorli bo'lmasin agar muhit shakllanmasa u inson o'z iqtidorini namoyon qila olmaydi. Misol uchun Xamurappining tarixda qolishiga ko'proq uning qonunlari sabab bo'ldi va bu qonunlarni vujudga kelishiga ham jamiyatning o'sha davrlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayoti sabab bo'ldi. Agar bu qonunlar bo'lmaganda edi, hozir biz Xamurappini shunchaki hukmdor sifatida eslardik va faoliyatimiz davomida uning hayotiga ko'p ham murojaat qilmasdik. Lekin uning qonunlari bizni doimo Xamurappini elashga undaydi.

Nutqning shakllamishida va uning namoyondolari qalqib chiqishida ham asta-sekinlik bilan mavjud vaziyat shakllandi. Misol uchun qadimgi Yunonistonda demokratiya tuzumining o'rnatilishi o'laroq, xalq yig'inlarida, senat kengashlarida va sud ishlarida mamlakatning har bir ozod kishisi nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan. O'sha davr sud majlislarida sudlanuvchi yoki davogar o'z fikrlarini ishonchli isbotlar asosida gapira olishi lozim edi. fikrini to'liq tushuntira olmaydiganlar yoki qonunlarni talqin qila olmaydiganlarga shubhasiz yordamchilar kerak edi. bu esa Yunonistonda "Logograflar" yani qonunlarni biladigan Advokatlar tabaqasini shakllantirdi. Keyinchalik esa kishilar ongida ulug' zotlarni eslash va ularni sharaflash hislari paydo bo'ldi. Bu holatda esa mashxur voqealar va ulug'lar hayotini madh qiluvchi "Epidektik" notiqlar toifasini vujudga keltirdi. Yuqoridagi holatlarning barchasi kelgusida Ritorika- chiroyli gapirish fani va Ritorlar- bu fanni o'rgatuvchilarni vujudga keltirdi. Yunonistonda Ritorikaning birinchi namoyondasi sifatida Sofist Gorgiyini (483-376) etirof etishgan. U Mil.Av. 427-yilda o'z shahri Leontina uchun harbiy yordam so'rab maxsus elchi sifatida Afinaga yo'l oladi va uning jozibador nutqi yoshlar ongiga kuchli tasir ko'rsatadi. shundan keyin Gorgiy Afinada Ritorika maktabini tashkil qiladi. [1.,19-bet] kim bilsin balki Gorgiyning harakatlari ham Afinaning keyingi taraqqiyotida muhim ro'l o'ynagan omil bo'lgandir!

Yunonistonda yashab o'tgan yana bir Afinalik sud notig'i Lisiy o'z davrida shuhrat qozonadi. U Mill.Av. 391-yilda Isokart notiqlik maktabini tashkil qiladi. Isokartning bu maktabidan Giperin, Esxin, Likurg va hammamiz taniydigan va uning hayotidan mativatsiya olib, u yengib o'tgan azob-uqubatlarni eslaydigan jahonga mashxur Demosfen ham Isokart maktabining qaldirg'ochlaridan biri edi. Isokart kuchli ovoza ega bo'lmagani uchun omma oldida nutq so'zlay olmas edi. lekin shunga qaramay taslim bo'lmadi va o'z ustida ishladi. Xattoki u vaqti kelganda urushlar paytida xalqni oldinga siljitish uchun o'z nutqini ishga solardi. Lekin qahramonimiz 337-yilda Xeroniya yaqinidagi mag'lubiyatdan keyin vafot etadi [2.,281-bet] kim bilsin balki Isokartning matonati va hayot qiyinchiliklariga bo'lgan uning kuch-quvvati keyinchalik Demosfenga ham turtki bo'lgandir.

Yunonistonda bo'lgani kabi qadimgi Rim imperiyasida ham, o'z nutqi va manipulyatsiyasi bilan xalqni o'ziga qarata oladigan ziyoli qatlam va notiqlar yetishib chiqadi. Misol uchun mashxur ozod qilingan qul Liviay Adronik(280-204) Gomerning "Odisseya" asarini lotin tiliga tarjima qilib, xalq ichida o'qib yurar edi. Mill.Av. IV-asr Rim tarixida Ritorika-notiqlikning yangidan gullab-yashnagan davri bo'ladi. Antik o'rta yer dengizining notiqlik maktablarida bo'lajak oliy amaldorlar va xristian targ'ibotchilari tarbiyalandi. Eng kuchli notiq va notiqlik san'ati o'qituvchisi Libaniy edi. u Antioxiyada imperatorlar, lashkarboshilar va oliy amaldorlarga qarata ijtimoiy dolzarb muammolar yuzasidan erkin nutqlar bilan murojaat qilardi. xattoki uni zamondoshlar " Kichik Demosfen" deya ulug'lashardi. mashxur Xristian targ'ibotchilari Grigoriy va Ioan Zlatus aynan uning maktabidan yetishib chiqqan edilar. [2.,419-420-betlar]

Qadimgi davr davomida O'rta Osiyoda ham malum manoda nutq madaniyati shakllanib bordi. To'g'ri bu hududlardagi nutq madaniyati hech qaysi sharoitda Yunon va Rim ritorikasi bilan tenglasha olmas edi. o'zi umuman qadimgi davrda O'rta Osiyoda Nutq madaniyati mavjud edi degan gap quloqqa bir oz boshqacha eshtiladi. Lekin keling ushbu holatni O'rta Osiyoda hech bo'lmasa kurtak yozganini birgalikda ko'rib chiqamiz. Misol uchun qadimgi tarixchilardan biri bo'lgan Poliyen "Harbiy xiyalalar" asarini yozadi va bu asarga etibor beradigan bo'lsak, unda Shiroq va Doro I haqida ham so'z yuritadi. Ushbu asarning mazmuniga qisqacha to'xtalsak Doro xalq ustiga bostirib keldi va yurish davomida shu narsa aniq bo'ldika xalq Doroning istilosiga ko'p vaqt bardosh bera olmaydi. Bu kabi holatlar hamisha xalq ichidan vatanparvarlarni yetishtirib chiqqan. Shiroq bu vaziyatga befarq bo'lmasdan o'z quloq, burnini kesib Doro huzuriga boradi va unga qarata Xalqni uni qo'llamagani, unga yomon muomila qilgani va shahanshoh ruhsat bersa u Doroni orqa tarafdan olib borib xalqni osonlikcha bo'syundirish mumkinligini aytadi. Shu joyida biz Shiroq va Doro masalasini to'xtatmiz! Endi menga aytingchi notiqlik rivojlanmagan bir davrda Shiroqdek oddiy cho'pon, kimsan Buyuk Doroni gapiga ishonirishi va kerak bo'lsa uni o'ziga manipulyatsiya qilishi mumkin edimi? Albatta yo'q!

Yoki yana bir misol tariximizning gulchambarlaridan bo'lgan mashxur Avesto kitobini olaylik, bu kitobni Zardusht (Mill.Avv 630-553) va unga ergashgan rohiblar dastlab og'zaki shaklda aytib yurishgan. Keyinchalik esa kitob holiga keltirilgan. Keling Avesto kitobidan parchalarni ham ko'rib o'tamiz, Yasna bobida quyidagi satrlar keltirilgan: “ Har kim bu dunyoda tiriklikni bayon etuvchi qonun bo'lgan Ashax-xaqiqat talimoti asosida yashashi lozim. Zardusht durvand, ashavan yoxud ezgu va qabih amollari qorishib ketgan kimsani eng yaxshi ravishu raftorga eltadi” [3.,16-bet] albatta o'sha davr uchun yuqoridagi satrlar nihoyatda balog'atli hisoblanadi va bu satrlar yillar davomida og'zaki nutqda aytib kelingan. Undan tashqari “Ezgu amal-ezgu fikr-ezgu so'z” talimotlari ham insonni o'ylashga majbur qiladi. Chunki yuqoridagi uch qoida tabir joiz bo'lsa har bir dinga xosdir.

Yana shu holatni ham alohida takidlashni hohlardim! Qur'oni karim va Hadisi-shariflarda ham nutq masalasi va o'z fikrini bayon qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Muqaddas kitobimiz va Payg'ambarimiz Muhammad Sallollohu alayhi va sallamning hadislarida ko'proq madaniy nutqqa, yani muloyim so'zlash, yaxshi gaplar gapirish, lag'v-yani bekorchi gaplardan tiyilish, fahsh gaplar aytmaslik, dunyo va oxiratga foydasi yo'q bo'lgan suhbatlar bilan band bo'lib qolmaslik qoidalariga ko'proq urg'u beriladi. Qur'oni karim ham arabcha “ Iqro” yani “o'qi” degan buyruq bilan nozil bo'la boshlagan. Biz Shayh Alouddin Mansur hazratlarining “Qur'oni karimning manolari tarjimasi”, Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri hilol” kitoblari yoki O'zbekiston musulmonlari idorasining marhum raisi, muftiy Usmonxon Alimovning “Tafsiri irfon” kitoblarini o'qisak Qur'onda ham asosan Payg'ambarlar va ularning qavmlari bilan bo'lgan suhbatlarga duch kelamiz. Bu borada payg'ambarlarning nutqidagi balog'at va fasohatga qoyil qolmasdan ilojimiz yo'q. Yana shunday holatlarga ham duch kelamizki zolimlar ham o'zlarining notiqlik qobilyatidan ustamonlik, bilan foydalanib hattoki Fir'avnga o'xshagan badbaxtlar “ Men sizlarning oliy robbingizman” deyishga ham jazm qiladi. Yoki fir'avning mutlaqo muqobili bo'lgan Muso Alayhisalom esa nutq masalasida, ravon emas edilar. Sababi yoshlikdagi jarohat u zotning voyaga yetgan vaqtlarida ham o'z asoratini ko'rsatar edi. lekin Allohning marhamati bilan tillaridagi tugun yechilib, nutqlari ravon bo'la boshlaydi. Bu holat Qur'oni Karimda quyidagicha tavsiflanadi:

25. U: Ey Robbim mening qalbimni keng qil
26. Mening ishimni oson qil
27. Tilimdagi tugunni yech
28. So'zimni anglasinlar..... [20-sura: 25-28-oyatlar]

Etibor qiladigan bo'lsak tilimdagi tugunni yech va so'zimni anglasinlar degan duoning maqsadlaridan biri, shubhasiz nutqning ravon bo'lishi ham edi. chunki Fir'avndaka zolim va aqlli maslahatchilar ko'p bo'lgan raqib bilan munozaraga kirishish, aslini olganda imkonsiz ham edi. yuqoridagi duo Muso Alayhisalomga dalda bo'ladi.

Hadisi-shariflarda ham insonning nutq odoblari bayon etilgan. Yuqorida bu masalaga qisqacha to'xtalib o'tdik. Yana shuni ham alohida takidlash joizki, inson gapirayotganida avvaliga vaziyatga munosib baho berishi va “Haqiqat ekan deb har narsani ham aytavermaslik maqsadga muvofiqdir” tabir joiz bo'lsa tahorat qilishshi bilmaydigan insonga Namoz hukmlari haqida yoki yosh qizlarga ayollarning uzurli holatlari haqida erkaklar tarafidan gapitilmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu albatta dinimiz ko'rsatmalaridan hisoblanadi. Dav'at qilishda ham Sarvari Koinot onsonroq usullarni qo'llar, insonlarga og'ir masalalarni ham soddaroq qilib tushuntirar edilar. Agar tabir joiz bo'lsa Arablarda notiqqlar va shoirlar qadrlanar edilar. Buni misolini biz Abdulloh Ibn Masuddek oddiy qo'yboqarning ka'ba oldida Qur'on oyatlarini o'qiganini aytishimiz mumkin. Albatta bu holat mashxur sahobiy uchun azob-uqubat olib keldi, lekin etiborli jihati sahobiyini oddiy odamlar tinglashdi, lekin islomga nisbatan g'arazi bo'lgan Abu jahl, Umayya kabilar bu holatga chiday olmay, uni do'pposlab ketdilar. Yani ularning g'azabi ko'proq Qur'onga bo'ldi desak yanishmagan bo'lamiz. Muxtasar qilib aytadigan

bo'lsak Islom dinida Notqlik va unga bog'liq ilmlarnin na Rim imperiyasi va na Yunonistonga taaluqli bo'lmagan chuqur ildizlari mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Notqlik va nutq madaniyatining shakllanish jarayoni uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu san'atning shakllanishida Demosfen kabi ulug' zotlar o'z havoyi-nafsini yengib o'tdi, o'zining o'tkir va tanqidiy qarashlari bilan mashg'ul bo'lgan Suqrot esa nutqining jozibadorligi va haqooniyligi uchun javobgarlikka tortilib halok bo'ldi. Afinalik Lisiy esa o'z nutqi bilan xalqni vatanparvarlikka va Ahamoniylar imperiyasiga qarshi kurashish uchun xalqni ruhlantirdi. Tabir joiz bo'lsa Forslarga Yunonlarning qilich va nayzalaridan ko'ra Lisiyning nutqi qattiqroq zarba bo'ldi. Tarixda shunday holatlar ham bo'lganki Fors elchilari bizga taslim bo'ling degan chaqiriqlari uchun devordan uloqtirilganlar va Arximed kabi olimlar birgina “ Evrika” iborasi bilan abadiylikka muhrlanganlar. Yani insonning nutqi va so'zi shu darajadagi quvvat va manioullyatsiya qilish kuchiga ega. Tabir joiz bo'lsa butun borliq ham Allohning “Kun faya-kun” yani “Bo'l” degan buyrug'i bilan yaralgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I.Norqul Bekmirzayev. Nutq madaniyati va notqlik asoslari. “Fan” nashriyoti 2007.

II.R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent-2009.

III.Avesto. Sharq nashriyoti-2001

IV.Qur'oni Karim. Toha surasi 26-28-oyatlar.